

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
OLIIY MATEMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**

Tasdiqlayman:

**«Oliy matematika va axborotlar
texnologiyalari» kafedrası**

mudiri:_____dos. X.Urdushev

« _____ » 2014 y.

**"INFARMATIKA VA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI" FANIDAN
KURS ISHI**

Mavzu: Elektron pochta xizmati

2013- 2014 o'quv yili

Bajardi: _____

(f.i.sh) (imzo)

bo'limi

1-bosqich ____ - guruh talabasi

Rahbar : _____

(f.i.sh) (imzo)

(imzo)

Komissiya raisi: _____

A'zolari: _____

Sana: _____

Samarqand-2014

“Tasdiqlayman”
“Oliy matematika va axborotlar
texnologiyalari” kafedrası
mudiri _____ dos. X.Urdushev
« _____ » _____ 2014 y.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan
BAJARILADIGAN KURS ISHINI TOPSHIRIQ VA BAHOLASH VARAQASI
_____ (f.i.sh) _____ bo'limi,

1-bosqich _____ - guruh talabasi

Rahbar: _____

MAVZU TOPSHIRIG'I BO'YICHA VAZIFALAR:

1. **Operatsion tizimlar** mavzusidagi topshiriq

2. Dastlabki ma'lumotlar: Kurs ishi mavzusiga oid konspektlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni o'rganish, bajarish va o'zlashtirish

3. Foydalanilgan materiallar:

Kafedradagi 1) Informatika va axborot texnologiyalari fanidan elektron o'quv-uslubiy majmua; 2) <http://www.ziynet.uz>- axborot ta'lim tarmog'i resurslari va [3;5;15;18;26;28;29;39;45] adabiyotlar

4. Qo'shimcha vazifa va ko'rsatmalar Kurs ishida Elektron pochta xizmati mavzusida internetdan ma'lumotlar keltirilsin.

Kurs ishini topshirish muddati:

Talaba _____

(imzo)

(f.i.o)

(sana)

1	2	3	4	Tushuntirish xati	Himoyaga ruxsat berildi, (ruxsat berilmadi)
Kurs ishi rahbarining imzosi					

Kurs ishini baholash	Maksimal ball, jami	Kurs ishini tayyorlash uchun, ball OB	Kurs ishini himoyasi uchun, ball JB	Kurs ishi himoyasida savollarga javob berish uchun ball OB
Kurs ishini baholash	100	0- 40	1- 30	1- 30
Talabaning to'plagan bali				

Rahbar _____

(imzo)

(f.i.sh)

(sana)

Mavzu. Elektron pochta xizmati

Kirish

I.Kurs ishining nazariy (referativ) qismi bo'yicha vazifalar:

- 1.Elektron pochta xizmati
- 2.Pochta serverlari va kliyentlari, qayd yozuvi va elektron pochta manzili
- 3.Xabarlar bilan ishlash. Xabarlarga fayllarni bog'lash
- 4.Internet elektron to'lov va tijorat tizimlari
- 5.Veb dasturlash va internet resurslarini yaratish

6.Microsoft PowerPoint: grafik muharrirlar, ularning vazifalari va imkoniyatlari

Xulosa

II. Kurs ishining amaliy qismi bo'yicha vazifalar:

1(7). Xo'jalikda o'simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rejalashtirishni MS Exsel da hisoblash:: 25- vazifa.

2.Axborot jarayonlarini algoritmlash va dasturlash. Quyida berilgan masalani:
1) so'zli algoritmini tuzing; 2) blok-sxemali algoritmini tuzing; 3) dasturlash (Paskal) tilida-dasturli algoritmini tuzing; 4) Turbo-Paskal muhitiga dasturni kiriting va natijalarni tahlil qiling: 55-vazifa.

Adabiyotlar

1.И.А. Каримов. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т.; Ўзбекистон, 2009. -56 б.

2.И.А. Каримов. “Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш – давр талаби”//“Халқ сўзи” 2009 й., 14 февраль.

3.Informatika. Darslik/Akademik S.S.G'ulomov umumiy tahriri ostida.T.; – TDIU, 2007 y.

4.Голицына О.Л., Максимов Н.В., Партыка Т.Л., Попов И.И. Информационные технологии: учебник.– 2-е изд., перераб. и доп. –М.: ФОРУМ:ИНФРА-М,2008.–608 с.

5.Аюпов Л.Ф., Бегалов Б.А., ва бошқ. Шахсий компьютерлар ва улардан самарали фойдаланиш асослари. Ўқув қўлланма. Т.; 2008 й.

6.Alimov R.X, Begalov B.A., Yulchieva G.T., Alishov Sh.A. “ Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari”.O'quv qo'llanma. T: - “Sharq”, 2006.

7.Алимов Р, Ходиев Б, Алимов Қ ва бошқалар. “Миллий иқтисодда ахборот тизимлари ва технологиялари”, Т.: “Шарқ”-2004

8.Алимов Р, Ходиев Б.Ю. ва бошқалар. “Ахборот технологияси”. Ўқув қўлланма. Т.: - ТДИУ, 2004.

9. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримовнинг "Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари" номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Тузувчилар: Б.Ю. Ходиев, А.Ш. Бекмуродов, У.В. Гофуров, Б.К.Тухлиев.-Т.:Иқтисодиёт,2009.– 120 б.

10.Гагарина Л.Г., Кокорева Е.В., Виснадул Б.Д. Технология разработки программного обеспечения: учебное пособие /под ред. Л.Г. Гагариной. – М.: ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М, 2008. – 400 с.

11.Алимов Р.Х., Юлчиева Г.Т., Алишов Ш.А. "Информатика ва ахборот технологиялари" фанидан масалалар ва уларни ечиш бўйича услубий кўрсатма. ТДИУ, 2005.

12.Алимов Р.Х., Юлчиева Г.Т., Алишов Ш.А. ва бошқалар. "Ахборот технологияси ва тизимлари" фанидан Microsoft Word матн муҳарририда тажриба машғулотларини ўтказишга оид услубий кўрсатмалар.Т.: ТДИУ. 2005.

13.Пащенко И.Windows XP.Шаг за шагом. М.: Эксмо, 2006,- 368 с.

14.Стоцкий Ю.Самоучитель Office XP. СПб.:Питер, 2005, - 571 с.

15."Ахборот технологиялари" фанлари бўйича иқтисодий масалаларни шахсий компьютерларда ечиш технологиялари.Кейс – стадиалар.Т.:ТДИУ–2005.

16.Хайтматов У.Т., Файзуллаев С.Х., Мажидов Р.Р. ва бошқалар. "Информатика ва ахборот технологиялари" фанидан тажриба ишларини бажариш учун услубий қўлланма. ТКТИ. 2005.

17.Урдушев Ҳ. ва бошқ. Информатика ва ахборот технологияларида матн муҳаррирларининг ўрни. Microsoft Word 2000 муҳарририда ишлашни ўрганамиз. «Информатика ва ахборот технологиялари» фанидан услубий қўлланмалар тўплами. Самарқанд 2004 й.

18.Урдушев Ҳ, Рахимов А, Бойчақаев М, Қаландаров Р. Microsoft Windows XP ва Microsoft Office XP да ишлаш. Услубий қўлланма. СамҚХИ. 2007. 320 б.

19.Лутфуллаев Х.С., Абдуғаффоров А., Мирзаев Н. Иқтисодиётда ахборот технологияси ва тизимлари. Т.:ТДИУ 2001-196 б.

20.Қосимов С.С. Ахборот технологиялари. Т.: «Алоқачи» 2006 370 бет.

Электрон дарсликлар

21.iSoft.uz – интерактив ўргатувчи дастурий мажмуа. Ахборот технологиялари бўйича мултимедиа интерактив ўргатувчи дастурий мажмуа

- 22.Электронный учебник. Microsoft Word. chm
- 23.Электронный учебник. Microsoft Excel. chm
- 24.Электронный учебник. Microsoft PowerPoint chm
- 25.Электронный учебник. Microsoft Access. chm
- 26.Электронный учебник. TurboPascal. chm

Интернет порталлар ва сайтлар

- 27.<http://www.gov.uz>- Ўзбекистон Республикаси ҳукумати портали.
- 28.<http://www.ziyonet.uz>- ахборот ресурслари
- 29.<http://www.ziyo.edu.uz>- ОЎМТ Вазирлиги Веб-сайти
- 30.<http://www.tsue.fan.uz> - ТДИУ Веб - сайти
- 32.http://vit.iatp.bu/software/s2_0.htm - «Тизимли дастурий та’минот» мавзуси бўйича электрон қурилма.
- 34.<http://fio.info.ru/archive/grop13/clwu2/>- Excel электрон жадвалида иқтисодий масалаларини ечиш технологиялари.
- 35.<http://psbatishev.narod.ru/excel/prakt29.htm> - Excel электрон жадвалида иқтисодий масалаларини ечиш технологиялари.
- 36.[http:// ictcouncil.gov.uz](http://ictcouncil.gov.uz) – Компьютерлаштиришни ривожлантириш бўйича Вазирлар маҳкамаси мувофиқлаштириувчи Кенгашинг сайти
- 37.<http://search.re.uz> –Ўзбекистонинг ахборотларни излаб топиш тизими.
- 38.<http://info.webcrawler.com/mak/projects/robots/threat-or-treat.html>-Обучение Интернет-профессиям. Search engine Expert.
- 39.http://searchengine.narod.ru/archiv/se_2_250500.htm-Дидактические материалы по информатике.
- 40.<http://www.comp-science.Narod.ru> ва <http://comp-science.Narod.ru>
- 41.Рўзимов С.К. Компьютер саводхонлиги.-Т.: Фан, 2006. -372 бет.
- 42.Эшкабилов С.Л. Интернет-ахборот қидируви.-Т.:Фан,2006.-113 бет.
- 43.Архипова З.В.,Пархомов В.А. Информационные технологии в экономике. Иркутск. Изд-во БГУЭП,2003.Электронная версия.
- 44.Фаронов В.В. Турбо Pascal 7.0. Начальный курс. Учебное пособие. Москва. «Ноллидж», 1999.
- 45.Савченко Н.А. Информатика и информационные технологии.
<http://www.humanities.edu.ru/db/msg/>
46. Информатика ва ахборот технологиялари фанидан электрон ўқув-услубий мажмуа

Kirish

I.Kurs ishining nazariy (referativ) qismi bo'yicha vazifalar

1.Elektron pochta xizmati

An'anaviy pochta xizmati. An'anaviy pochta xizmati bizga ma'lum bo'lgan va har bir shahar va markazlarda joylashgan pochta aloqasi korxonalari orqali amalga oshiriladi. Bunda jo'natilishi rejalashtirilayotgan xat maxsus konvertga solinib, yuboruvchi va qabul qiluvchining indeksi, manzili va kimga mo'lljallanganligi yoziladi. Shu ma'lumotlarga asoslangan holda pochta korxonasi kelgan xatni markaziy pochta korxonasiga yuboradi va u yerda saralanib tegishli manzilga eltib berishni ta'minlaydi. Kamchiligi shundaki yuborilgan xabar yoki xat manzil uzoqligiga qarab kunlab, oylab borishi, ba'zi hollarda umuman yetib bormasligi ham mumkin.

Elektron pochta xizmati va uning afzalliklari. Internet-xalqaro tarmog'ining asosini Electronic mail (E-mail) - elektron pochta xizmati tashkil qiladi. Elektron pochta xuddi odatdagi pochtadek bo'lib, faqat bunda xatni qog'ozga emas, balki kompyuter klaviaturasidan harf va so'zlarni terib, ma'lum elektron yozuv ko'rinishiga keltiriladi. Elektron pochta maxsus dastur bo'lib, uning yordamida Internet tarmog'i orqali dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjat, ya'ni ixtiyoriy ma'lumotni tezda (bir necha soniya va daqiqalarda) jo'natish va qabul qilib olish mumkin. Elektron pochtaning kamchiligi shundan iboratki, xat jo'natuvchi va qabul qiluvchining har ikkalasi ham foylanayotgan kompyuter Internet tarmog'iga ulangan bo'lishi zarur.



Elektron

pochta bu nima? Elektron pochta maxsus programma bo'lib, uning yordamida dunyoning ixtiyoriy joyga xat, hujjat va ixtiyoriy turdagi fayllarni jo'natishiz mumkin. Buning uchun siz Internet yoki pochta tarmog'ining a'zosi bo'lishi shart. Bu tarmoq provayder deb nomlanadi. Har bir tarmoq foydalanuvchisi uchun tarmoq kompyuteri (serveri) xotirasida ma'lum soha ajratiladi va foydalanuvchiga elektron adres (e-mail) beriladi. Xotiradagi soha - pochta yashigi deyiladi. Barcha adreslardan kelgan xatlar aynan shu yashigda saqlanadi. Elektron adresning to'liq ko'rinishi quyidagicha: e-mail a'zoning adresi - et belgisi va host kompyuterlar nomi. Bu yerda xost (host - ega) bu pochta yaqin joylashgan tarmoq kompyuteri nomi. U bir necha qismdan iborat bo'lishi mumkin. Bu qismlar domenlar deb nomlanadi. Ular

mamlakat, provayder va tashkilotlarni ko'rsatishlari mumkin. Misol uchun disonic@inbox.ru. Bu yerda disonic- bu adres egasining pochta qutisining nomini, inbox- bu provayder nomini va ru- yuqori domen mamlakat nomini ko'rsatadi.

Elektron pochta bilan ishlash uchun maxsus programmalar yaratilgan bo'lib, ularni mail umumlashma nomi bilan birlashtirish mumkin. Bu programmalar quyidagi vazifalarni bajaradi.

- matnni yaratadi;
- xat-xabarlarni o'qish va saqlash;
- xat-xabarlarni o'chirish;
- adresni kiritish;
- xat-xabarlarni qabul qilish va jo'natish;
- turli fayllarni xatga ilova qilish;
- xatlarni mavzusiga qarab ajratish.

2.Pochta serverlari va kliyentlari, qayd yozuvi va elektron pochta manzili

Xabar va pochta qutisi tushunchalari. Xabar, umuman olganda, foydalanuvchi pochta orqali yuborishi kerak bo'lgan ma'lumot xisoblanadi va oldindan boshqa dasturda (masalan Word) tayyorlab, keyin elektron pochta orqali jo'natishi maqsadga muvofiqdir. Pochta serveri ham o'zining matn terish oynachasiga ham ega bulib, xabarni shu oynada yozish mumkin.

Pochta qutisi – bu foydalanuvchi uchun elektron pochta xizmatini taqdim etuvchi kompyuterda qayd qilingan nomdir. Ushbu nom kompyuter xotirasida papka ko'rinishida shakllantiriladi va u o'zida kiruvchi va chiquvchi xabarlarni vaqtinchalik saqlaydi. Elektron pochta manzillaridagi elektron pochta manzili belgisidan (_____ @ _____) oldin kelgan yozuv pochta qutisi nomini anglatadi.

Xabarlarning turlari. Xabarlar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin masalan: matn, grafik, rasm, ovoz va video ma'lumotlar. Yuborilishi rejalashtirilayotgan ma'lumotlarning hajmi bo'yicha ham chegaralanish mavjud. Har bir pochta provayderi o'zining siyosatiga ega bo'lib bitta xabarning 2, 5, 10Mb hajmgacha bo'lgan xabarlarni yuborishni ta'minlaydi. Agarda bu hajm oshib ketsa katta hajmdagi xabarlarni Rar yoki Zip dasturlari yordamida arxivlab yuborish tavsiya etiladi.

Elektron pochta manzili. Elektron manzil @ belgisi bilan ajratilgan ikki qismdan iborat, ya'ni manzilgoh @ foydalanuvchi nomi. Elektro manzilga misol tarikasida. tuit@tuit.uz, tuit@inbox.uz larni keltirish mumkin, bu elektron manzillar “tuit” nomli ishlatuvchining <http://mail.tuit.uz>, <http://inbox.uz> pochta serverida joylashgan pochta kutisi xisoblanadi.

3.Xabarlar bilan ishlash. Xabarlarga fayllarni bog'lash

Xabarlarni uzatish va qabul qilish. Tashkil qilingan elektron pochta orqali boshqa elektron manzilga xat jo'natish ketma-ketligini ko'rib chiqamiz: dastlab, mail.ru Web sahifasi ishga tushiriladi va ekranda hosil bo'lgan ishchi oynaning *Imya* darchasida foydalanuvchi elektron manzili va *Parol* darchasida paroli kiritiladi va *Voyti* tugmachasi bosiladi. *Komu* darchasiga xat jo'natilishi kerak bo'lgan elektron manzil, *Kopiya* darchasiga, agar shu xat boshqa manzilga ham jo'natilishi kerak bo'lsa, o'sha manzil, *Tema* darchasiga xat mavzusi yoziladi. Xat mazmuni pastki bo'sh oynaga yoziladi va *Otpravit* tugmachasi bosiladi. Agar xat to'g'ri jo'natilgan bo'lsa, u holda ekranda *Uspeshno otpravlen* ma'lumoti paydo bo'ladi. Foydalanuvchi elektron manzil orqali kompyuter xotirasidagi ixtiyoriy fayllarni ham jo'natishi mumkin. Buning uchun *Prikrepi*t tugmachasi bosiladi. Agar bir nechta faylni jo'natish kerak bo'lsa, qolgan fayllar ham shu tartibda tanlanadi.

Foydalanuvchi elektron pochtaga kelgan xatlarni ko'rishi uchun *Vxodyau*iiye buyrug'i tanlanadi. Ekranda pochtaga kelgan xatlar ro'yxati paydo bo'ladi. Unda xat kimdan, mavzusi, pochtaga qachon kelib tushgan va fayl o'lchami to'g'risida ma'lumot saqlangan. Foydalanuvchi xatni o'qishi uchun, *Tema* bandida sichqonchaning chap tugmachasi bosiladi. Ekranda xat mazmuni paydo bo'ladi. Foydalanuvchi xatni o'qishi va agar zaruriyat bo'lsa *Fayl*→*Pechat* buyrug'i orqali printerda chop qilishi mumkin. Elektron pochtaga keraksiz xatni o'chirish uchun dastlab u belgilanadi va *Udalit* tugmachasi bosiladi. o'chirilgan fayl *Korzinaga* borib tushadi. Korzinani tozalash *Ochistit Korzina* buyrug'i orqali amalga oshiriladi.

Xabarlarni ko'pchilikka yuborish. Ma'lum bir sabablarga ko'ra bir xil mazmundagi xabarlarni bir necha manzil yoki pochta qutisiga yuborish zaruriyati paydo buladi. Shunda, *Komu* darchasiga xat jo'natilishi kerak bo'lgan elektron manzillar “ ; ” (nuqta vergul) belgilari bilan ajratiladi, masalan: (tuit@tuit.uz; tuit@inbox.uz; va boshqa manzillar), *Kopiya* darchasiga, agar shu xat boshqa manzilga ham jo'natilishi kerak bo'lsa, o'sha manzil, *Tema* darchasiga xat mavzusi yoziladi. Ushbu vazifadan biror elon yoki yangilikni ko'pchilikka barobar yuborish uchun foydalaniladi.

Spam tushunchasi, spamlarning turlari va ularga karshi kurashish. «Spam» termini yangi mazmunda jonga teguvchi elektron tarqatmalar yoki pochta chiqindilari degan ma'noni anglatadi. Spamlar 1993-yilda paydo bo'lgan. Usenet kompyuter tarmog'i administratori Richard Depyu yaratgan dasturdagi xato 1993-yil 31-mart kuni konferensiyalardan biriga ikki yuzta bir xil xat jo'natilishini keltirib chiqardi. Uning norozi suhbatdoshlari jonga teguvchi xabarlarga tezda -

«spam» degan nom topdilar. «Kasperskiy Laboratoriyasi» tushunchasiga ko'ra, spam - bu so'ralmagan anonim ommaviy tarqatmalardir.

Spam (foydalanuvchi tomonidan so'ralmagan axborot) jo'natuvchining (spamer) maqsadi va vazifalariga qarab tijorat axborotiga ega bo'lishi yoki unga hech qanday aloqasi bo'lmasligi mumkin. Shunday qilib, mazmuniga qarab, xabarlarning «tijorat» spami - «unsolicited commercial e-mail» (umumiy qabul qilingan abbreviaturasi - UCE) va «notijorat» - «unsolicited bulk e-mail» (UBE) turlari mavjud.

Anonim: barcha ko'pincha aynan yashirin yoki qalbakilashtirilgan qayta aloqa manzili ko'rsatilgan avtomatik tarqatmalardan jabrlanadi.

Ommaviy: ushbu tarqatmalar aynan ommaviy va faqatgina shular spamerlar uchun haqiqiy biznes hamda foydalanuvchilar uchun haqiqiy muammo hisoblanadi.

So'ralmagan: imzolangan tarqatmalar va konferensiyalar bizning tushunchamizga kirmasligi kerakligi yaqqol tushunarli. Har bir elektron pochta xizmati o'zining foydalanuvchilariga spamdan himoyalash vositalarini taklif qilishadi. Ya'ni spamga taalluqli bo'lgan elektron manzillar spam filtriga kiritiladi va ushbu manzillardan kelayotgan spamlar xabarlar vaqtincha saqlanuvchi katalogga avtomatik tarzda joylashtiriladi va 30 kundan keyin o'chirib tashlanadi.

Filtrlar va kora ruyxat. Filtrlar asosan kelayotgan xatlarni saralash, tartiblash funksiyasini bajaradi. Qora ruyxat esa xat yuboruvchi manzilni maxsus jurnalga kiritib bu manzildan boshqa xat olmaslik maksadida ishlatiladi.

Milliy elektron pochta xizmatlari. Xozirgi kunda milliy pochta xizmatlari ham ancha rivojlanib bormokda. O'zbekistondagi har bir Internet provayder o'zining pochta serveri va xizmatiga ega bulib, asosan o'zining mijozlariga xizmat ko'rsatadi, ularning ichidan mail.uz, inbox.uz kabilari ochik hisoblanadi va bu tizimdan hohlovchilar bepul foydalanib xat va xabarlar jo'natib qabul qilishlari mumkin.

Xalkaro pochta xizmatlari: mail.ru, gmail.com, yahoo.com. Elektron pochta orqali ma'lumot yuborish uchun ikki yo'nalish mavjud, bulardan biri bepul elektron pochta xizmati deb yuritilib, undan foydalanish uchun Internetda ma'lum bir Web sahifalari mavjuddir. Bular mail.ru, yahoo.com, mail.uz, gmail.com va hokazo. Foydalanuvchi dastlab, pochta manziliga ega bo'lishi kerak. Pochta manzilini tashkil qilish uchun Internet Explorer dasturining asosiy oynasiga ushbu Web sahifalaridan biri chaqiriladi va ishga tushiriladi.

Elektron pochtdan foydalanish va elektron xabarlarni almashish madaniyati. Hayotdagi etika kabi elektron pochtda ham etika mavjud. Ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz:

- Pochtangizni tez-tez o'qib turing. Ko'pchilik foydalanuvchilar o'z xatlarini faqatgina bo'sh vaqtlaridagina o'qiydilar. Bu korrespondentlarga nisbatan bo'lgan behurmatlikdir. Buning oqibatida siz juda ham muhim bo'lgan axborotni qo'ldan boy berishingiz mumkin. Foydalanuvchi pochta-sini har doim, o'z vaqtida o'qib borishi lozim.

– Xatda albatta sarlavha (subject) ko'rsatish zarurdir. Bu mijozlarni ortiqcha ishlardan qutqaradi.

– Xatingizni oluvchini biling va hurmat qiling.

– Xatni xatosiz yozing. Grammatik va orfografik xatolar bilan yozilgan xat jo'natuvchi to'g'risida yaxshi taassurot qoldirmaydi.

– Qisqa yozing. Elektron pochta-da yozayotgan xatingizni mazmunini qisqa va aniq ko'rsata biling. Xatingizdagi xatolar va fikrdan chiqib ketishlik birinchi o'rinda xatingizni emas, balki sizning o'zingizni xarakterlaydi.

– O'z xatingizni boshqa manzillarga ko'chirishlikdan saqlaning. O'z xatingizni faqatgina shu xat tegishli bo'lgan manzillarga jo'nating. Aks holda, xatlarni ko'p manzillarga jo'natish hamkorlaringizda yaxshi taassurot uyg'otmasligi mumkin.

– Kerak bo'lmagan taqdirda o'z xatingizga javob va so'rovlar yo'llamang. Kerak bo'lmagan taqdirda «iltimos javob bering» yoki «iltimos xatni tasdiqlang» kabi so'rovlarni yo'llamang.

– So'rovlarga to'liq javob bering. So'rovlarga javob berishda qisqa «ha» yoki «yo'q» kabi javob bermang. Bu hol xat oluvchida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

4. Internet elektron to'lov va tijorat tizimlari

Elektron tijoratning asosiy ko'rinishlari:

► Elektron tijorat virtual savdo maydonchasi deganda shunday joy tushuniladi, u yerda sotuvchi va xaridor o'rtasida shartnoma tuziladi va moliyaviy oldi sotti amallari o'tkaziladi

► Katalog zamonaviy axborot tizimini katta quvvatli qidiruv imkoniyatlarini solishtirish va mahsulotni birdaniga bir nechta parametrlari bo'yicha tanlashni, narxni, keltirib berish muddati, kafolati, xizmat ko'rsatish buyicha ma'lumotlar va boshqalarni hisobga olgan holda ishlatishni tashkil etib beradi


► Birja- shunday savdo maydonchasini anglatadi, u yerda narx talab va taklif asosida belgilanadi


► Web-vitirnal, bu aytarli katta bo'lmagan Web bo'limlaridir. Ular kichik biznes – kompaniyalariga tegishli bo'ladi. Bu saytlarda savdo hajmi uncha kata bo'lmaydi va bir kunda o'ntagacha bo'lgan savdo ishlarini amalga oshiradi.

►Elektron magazinlar - bu kichik va o'rta biznes kompaniyalarini savdo saytlaridir. Web-vitirnalarga nisbatan kattaroq hajimli savdoga mo'ljallangan bo'ladi.

► Savdo Internet tizimlari. Elektron tijoratning maxsus tizimlari bo'lib, yirik savdo kompaniyalari, korporasiyalar, xoldinglar, ishlab chiqarish korxonalarining ta'minot va mahsulotlarni sotish bo'limlarini mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu tizim internet mazazindan o'zining avtomatlashtirilgan savdo tizimi bilan bevosita aloqasi, korxona resurslarini boshqara olishi bilan ajralib turadi.

► Aukcion -Web-sayt- bunda istalgan talablar hohlagan tovarni o'zi belgilagan boshlang'ich narxda savdoga quyishi mumkin. Belgilangan vaqt tugagach, sotuvchi shu tovar uchun yuqori narx taklif etgan xaridor bilan bog'lanishi va ana'naviy tarzda savdo-sotik ishlarini amalga oshirish mumkin.





Elektron tijoratning an'anaviy savdo turlaridan farqi. Elektron tijoratning an'anaviy savdo turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi:

- xaridor o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega;
- savdo-sotiq faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjud;
- ko'p sonli xaridorlarning bir vaqtning o'zida bir nechta firmalarga murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli xaridorlarning aloqa vositalari yordamida sotuvchilar bilan muloqotda bo'lish imkoniyati;
- kerakli mahsulotlarni tezlikda izlab topish va shu mahsulotlari bor firmalarga murojaat qilishda texnika va transport vositalaridan samarali foydalanish, mahsulotlarni bir joyga yig'ish va ularni sotib olishda aniq manzillarga murojaat qilish. Ortiqcha vaqt va xarajatlarni kamaytiradi;
- xaridorning yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati;
- hozirgi kunda chiqqan jahon standartlariga javob beradigan mahsulotlarni tanlash va sotish imkoniyati;
- elektron tijorat sotuvchining mahsulotlarini (ish, xizmatlarini) sotish jarayonidagi imkoniyatini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Endi sotuvchi mahsulotlarini sotish jarayonini tezlashtirishi, yangi va sifatli mahsulotlarni muntazam almashtirishi, mahsulotlarning aylanma xarakatini tezlashtirishi kerak bo'ladi;

Elektron tijoratda savdoni tashkil qilish firmalarning raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlarning sifatini oshirish imkoniyatini beradi. Xaridorlar kundalik xayotida kerakli mahsulotlar ichida sifatlarini tanlashi mumkin. Chet el firmalariga murojaat qiladi.

Hozirgi davrda 2005 yilning 16 dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida” Qonuni axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida to‘lovlarni amalga oshirishda asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu qonunni 3-moddasida elektron to‘lov tushunchasi quyidagicha tasniflanadi:

“Texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to‘lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish elektron to‘lovdir.

Elektron to‘lov to‘lov tizimining subyektlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalar asosida to‘lov tizimining belgilangan qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi”.

2004 yil 29 aprelda qabul qilingan bu Qonun qeyidagi moddalardan tashkil topgan:

- 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi
- 2-modda. Elektron to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari
- 3-modda. Elektron to‘lov
- 4-modda. To‘lov tizimi va uning turlari
- 5-modda. To‘lov tizimining qoidalar
- 6-modda. To‘lov tizimining subyektlari
- 7-modda. Banklararo to‘lov tizimi
- 8-modda. Bankning ichki to‘lov tizimi
- 9-modda. Chakana to‘lovlar tizimi
- 10-modda. To‘lov tizimining subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar
- 11-modda. To‘lov tizimi a‘zolarining huquq va majburiyatlari
- 12-modda. To‘lov tizimidan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari
- 13-modda. Elektron to‘lov hujjatini tuzish
- 14-modda. Elektron to‘lov hujjatiga ishlov berish
- 15-modda. Elektron to‘lov hujjatlarini saqlash
- 16-modda. Elektron to‘lov hujjatining yuridik kuchi
- 17-modda. Elektron to‘lovlarni amalga oshirish muddatlari
- 18-modda. Elektron to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash
- 19-modda. To‘lov tizimida axborot xavfsizligi va muhofazasini ta‘minlash
- 20-modda. Elektron to‘lovlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning maxfiyligi
- 21-modda. Nizolarni hal etish
- 22-modda. Elektron to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

23-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

“9-modda.Chakana to'lovlar tizimi

Chakana to'lovlar tizimi bank kartalari va boshqa elektron to'lov vositalari (bundan buyon matnda elektron to'lov vositalari deb yuritiladi) qo'llanilgan holda elektron to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Elektron to'lov vositasi uning mazkur chakana to'lovlar tizimiga mansubligini identifikatsiyalash imkoniyatini beradigan farqlovchi belgilarga (tovar belgisiga, xizmat ko'rsatish belgilariga) ega bo'lishi kerak.

Chakana to'lovlar tizimining qoidalari mazkur chakana to'lovlar tizimini tuzgan tashkilot tomonidan belgilanadi”.

Elektron pullar tushunchasi. Elektron pul – bu pul birligiga tenglashtirilgan belgilar hamda kupyura va tanga rolini bajaruvchi juda katta son yoki fayllardir. Bunday tizimning faoliyat ko'rsatish harajatlari boshqalaridan ancha kam. Bundan tashqari, elektron pullar to'liq anonimlikni ta'minlashi mumkin, chunki uni ishlatgan mijoz haqida hech qanday ma'lumot berilmaydi.

Elektron pul birliklari.

WMY – O'zbekiston zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun UZSning Y-hamyondagi ekvivalenti.

WMR – rubl zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun RURning R-hamyondagi ekvivalenti, WMR operatsiyalarining kafili bo'lib WebMoney Transfer ning Rossiya hududidagi vakili “BMP” MChJ xizmat qiladi.

WMZ – AQSh dollarida operatsiyalarni amalga oshirish uchun USD ning Z-hamyondagi ekvivalenti.

WME – YeVRO da operatsiyalarni amalga oshirish uchun EURning E-hamyondagi ekvivalenti, WMZ va WME operatsiyalarining kafili bo'lib Amstar Holdings Limited, S.A. xizmat qiladi.

WMU – Ukraina zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun UAHning U-hamyondagi ekvivalenti, WMU operatsiyalarining kafili bo'lib “Ukrainskoye Garantiynoye Agentstvo” MChJ xizmat qiladi.

WMB – Bellorusiya zonasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun BYRning V-hamyondagi ekvivalenti.

WMG – 1 gramm oltinning G-hamyondagi ekvivalenti.

WBC va WMD – WMZning S va D hamyonlardagi kredit operatsiyalari uchun ekvivalenti.

Internet to'lov tizimlari, ular orqali to'lovlar va xaridlarni amalga oshirish.

Texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish elektron to'lovdir.

Elektron to'lov tizimida tovar/xizmatlar to'lovi xaridorning elektron hisobidan shaxsiy bank raqami hisobiga pul mablag'larini chiqarish imkoniga ega bo'lgan sotuvchining elektron hisobiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Quyidagi elektron to'lov tizimlari mavjud:

- **WEBSUM;**
- **iPAY;**
- **PAYNET;**
- **WEBMONEY;**
- **IntellectMoney;**
- **Perfect Money;**
- **RBK Money;**
- **V-money.**

Elektron to'lov tizimlari yordamida Internet va IP-telefoniyaga ulanish uchun «PIN» kodlar va internet do'konlardan tovarlarni harid qilish, uyali aloqa xizmati, shaxar telefoniyasi, kommunal xizmatlar, domen va xosting, reklama, televideniye, chiptalar, datasentrlar, veb resurslar uchun haq to'lash mumkin.

iPAY – bu UzExdagi birja savdolarida, www.uzbex.com global savdo maydonchasida, hamda iPAY tizimiga qo'shilgan internet do'konlarda onlayn to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi, O'zbekiston Respublikasi tovar hom-ashyo birjasining to'lov tizimidir.

Internet-banking. To'lov tizimlari orasida alohida guruh, bu Internet banking funksiyasini bajaruvchi tizim, ya'ni Internet orqali bank operatsiyani amalga oshirish hisoblanadi.

Internet-banking – bankdagi hisob raqamni Internet orqali boshqarish imkoniyatini beradigan xizmat. Internet banking tizimida samarali ishlash uchun Internetga ulangan va Internet brouzerga ega kompyuter bo'lishi yetarli hisoblanadi.

Internet-banking imkoniyatlari quyidagilarni bajarishga imkon beradi:

- bankka barcha turdagi moliyaviy hujjatlarni yuborish;
- istalgan davr uchun bankdagi hisob raqamlardan ko'chirmalar va ularga tegishli boshqa hujjatlarni olish;
- haqiqiy vaqt tartibida to'lov hujjatlari bank ishlovidan o'tishining barcha bosqichlarini kuzatish;
- xatolar to'g'risida xabarlarini tezkor olish;
- kirim va chiqim to'lov hujjatlarini ko'rish va chop etish.

Internet-banking va bankdan tashqari elektron to'lovlar tizimlarining yanada rivojlanish jarayonida on-layn sotuvlar sektorida jadal o'sishni kutish lozim, bunda ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchi barcha kompaniyalar Internet tarmog'i orqali tovarlarini bemaolot sotishlari mumkin bo'ladi.

To'lovlarning bankdan tashqari sektorini rivojlantirishning keyingi bosqichi bu mobil to'lovlar tizimlari bo'ldi.



WEBSUM elektron to'lov tizimi.



iPAY elektron to'lov tizimi.

Elektron karmon, ularni to'ldirish va pul olish. Elektron karmon - bu elektron pullarni saqlash uchun mo'ljallangan vosita.

Tovarlarni sotish va xarid qilishga mo'ljallangan veb texnologiyalar asosida yaratilgan axborot tizimi tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar quyidagilardan tashkil topadi:

- mijozga tovar (xizmat) haqida ma'lumot berish;
- mijozdan tovar (xizmat)ga buyurtma qabul qilish.

Ba'zan onlaynli to'lov tizimlaridan foydalanilganda uchinchi vazifa-to'lov haqini olish, tovarni sotishda esa yana to'rtinchi vazifa - haqi to'langan tovarni jo'natish qo'shiladi.

Elektron karmonni to'ldirish va ulardan pul yechishni quyidagi usullar bilan amalga oshirish mumkin:

1. Tijorat banklarida naqd pul bilan;
2. Bank kartalari (VISA, MasterCard, UzKart) yordamida;
3. Pochta orqali;
4. Internet-banking yordamida;
5. Pul o'tqazmalar tizimlari yordamida;
6. Mobil aloqa yordamida.

Internet VISA va MasterCard to'lov kartochkalari.

Visa Inc. – to'lov operatsiyalarini amalga oshirish xizmatlarini ta'minlovchi amerika kompaniyasi. VISA International Service Association - jahonning yetakchi to'lov tizimi hisoblanadi.

VISA kartalari bo'yicha yillik savdo aylanmasi 4,8 trillion AQSh dollarini tashkil qiladi. VISA kartalari dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlarida qabul kilinadi. Dunyoda to'lov kartalarining 57% VISA kartalari tashkil qiladi, asosiy raqobatchilari MasterCard 26% va American Express 13% tashkil qiladi.

MasterCard Worldwide – dunyoning 210 mamlakatlaridagi 22 ming moliyaviy tashkilotlarni birlashtirgan xalqaro to'lov tizimi hisoblanadi. Bosh ofisi AQShning Nyu-York shaxrida joylashgan.

Hozirgi kunda internet to'lov tizimlari to'liqligicha yuqorida keltirilgan VISA va MasterCard bilan ishlash imkoniyatiga ega, ya'ni internet to'lov tizimlaridagi xamyonlarni to'ldirish yoki xamyonlardagi ishlatilmay qolgan mablag'larni qayta kartochkaga chiqarish mumkin.

4. Elektron do'kon tushunchasi. Elektron do'konni yaratish bosqichlari.

Internet do'konlar va internet birja.Bugungi kunda "Internet do'kon" nomi ostida turli ko'lam va maqsaddagi yechimlarning keng spektri taklif qilinmoqda. WEBSUM elektron to'lov tizimidan foydalanadigan internet do'konlar quyida keltirilgan:



UzEx internet birja – bu shaxsiy kompyuter orqali UzEx savdo maydonchalarida savdo qilish imkoniyatini beruvchi global milliy savdo maydonchasi. Ushbu savdo tizimi, iPAY tizimi foydalanuvchilariga, maksimal qulayliklar bilan osongina o'z tovarlarini sotish va kerakli tovarlarni harid qilish imkonini beradi.

Электрон тижорат

Электрон тижорат фаолияти Ўзбекистон Республикасининг “Электрон тижорат тўғрисида”ги 2004 йил 29 апрелдаги 613-П сон Қонуни билан белгиланади ва амалга оширилади

- Интернет тармоғидаги тижорат соҳасига онд фаолиятни, унда олди-сотдини амалга оширилишини ифодалаш учун қўлланилади.
- У компьютер тармоғидан фойдаланган ҳолда харид қилиш, сотиш, сервис хизмати кўрсатишни амалга ошириш, маркетинг тадбирларини ўтказиш имкониятини таъминлайди.



Электрон тижоратнинг анъанавий савдо турларидан фарқи

Харидор ўзига қулай вақт, жой ва тезликда маҳсулотни танлаш ва сотиб олиш имкониятига эга;

Савдо-сотиқ фаолиятини иш фаолияти билан бирга параллел равишда, яъни ишлаб чиқаришдан ажралмаган ҳолда олиб бориш имконияти;

Кўп сонли харидорларнинг бир вақтнинг ўзида бир нечта фирмаларга мурожаат қила олиш имконияти;

Керакли маҳсулотларни тезликда излаб топиш ва ушбу маҳсулотлар мавжуд бўлган корхоналарга мурожаат қилишда техника ва транспорт воситаларидан самарали фойдаланиш имконияти;

Харидорнинг яшаш жойи, соғлиғи ва моддий таъминланиш даражасидан қатъий назар ҳамма қатори тенг ҳуқуқли маҳсулот сотиб олиш имконияти;

Ҳозирги кундаги мавжуд жаҳон стандартларига жавоб берадиган маҳсулотларни танлаш ва сотиш имконияти;

Электрон тижоратда савдони ташкил қилиш корхоналарнинг рақобатини кучайтиради, монополиядан чиқаради ва маҳсулотларнинг сифатини ошириш имкониятини беради.

5.Veb dasturlash va internet resurslarini yaratish

Internetda veb-sahifani ko'rish uchun brauzerlardan foydalaniladi

Uning nomlashda «Web-sahifa», «WWW-sahifa», «Sahifa» atamalari ishlatiladi.

Veb-sahifa: «Bosh sahifa» (Glavnaya stranisa), «Boshlang'ich sahifa» (Nachalnaya stranisa) «Uy sahifasi» (Domashnaya sahifasi)laridan iborat bo'ladi.

Bosh sahifa veb-sahifani boshlang'ich sahifa hisoblanadi. Odatda bosh sahifaga saytning taqdimot va navigasiya vazifalari yuklatiladi.

URL- manzil shakli (Uniform resource locator -Universalnyy lokator resursov - Resurslarni universal lokatori yoki Resurslarni yagona ko'rsatuvchisi).

URL o'zida: domen nomi, fayl yoki katalogni nomi, kompyuterni tarmoq manzili va faylga kirishni metodini ifodalovchi protokoldan iborat bo'ladi.

URL – manzil shakli. Server nomi ko'rsatiladigan fayl, fayl katalogi yoki va fayl saqlanadigan joy manzil shakli.

WWW da axborot maxsus fayllarda, ya'ni Web-sahifalarda joylashadi. Web-sahifaga matn, rasm, tovush, videotasvir va hokazo ko'rinishdagi axborotlarni joylashtirish mumkin.

WWW ning ommalashuviga yana bir omil gipermatn dir. Gipermatn Web-sahifaning biror qismiga yoki boshqa Web-sahifaga bog'liqligini ko'rsatuvchi ilova bo'lib, u so'z yoki rasm bo'lishi mumkin.

Gipermatn yordamida Web-sahifaning kerakli qismiga yoki boshqa Web-sahifaga tez va oson o'tish mumkin.

Bitta tashkilot yoki xususiy shaxsga tegishli va mazmuniga ko'ra o'zaro bog'langan bir nechta Web-sahifalar majmui Web-sayt deyiladi.

Web-saytni kitobga, Web-sahifani esa kitobning sahifasiga o'xshatish mumkin. Web-sahifalar o'zaro gipermatn yordamida bog'lanadi.

Demak, Web-saytlar ham, Web-sahifalar ham Web-server deb ataluvchi Internetga ulangan maxsus kompyuterlarda saqlanadi va o'z manziliga ega bo'ladi.

Bu manzil URL (Universal Resource Locator – zahiralarning universal lokatori) deb ataladi. URL hamisha <http://> yozuvdan boshlanadi.

So'ngra Web-sahifa joylashgan tarmoq manzili (masalan, www.samqxi.uz), keyin Web-sahifa nomi yoziladi. Ya'ni, Web-sahifaning Internetdagi manzili [http:// www.samqxi.uz/](http://www.samqxi.uz/) **234** ko'rinishda bo'ladi.

WWW da axborot almashishni amalga oshirish uchun protokol talab qilinib, u bir tomondan multimedia ma'lumotlarini uzatishni ta'minlasa, ikkinchi tomondan har qanday tizimga tushunarlidir.

WWWda berilganlar gipermatnlarni uzatish protokoli (Hyper Text Transfer Protocol -HTTP) bilan uzatiladi.

6.Microsoft PowerPoint: grafik muharrirlar, ularning vazifalari va imkoniyatlari

Misol tariqasida «Axmad-Ziyo» kichik korxonasining xarajatlari to'g'risidagi ma'lumot biror yilning yanvar-iyun oylarida pul tushumi to'g'risidagi ma'lumotni saqlovchi slayd tashkil qilish jarayonini ko'rib chiqamiz. Biz quyidagi jadvalga egamiz:

**«Ахмад-Зиё» кичик корхонасининг харажатлари
тўғрисидаги маълумот**


	Январь	Февраль	Март	Апрель	Май	Июнь	Жами
Маош	2334567	345673	456788	678956	567896	789654	5173534
Реклама	45677	34567	45634	44765	48965	52678	272286
Ижара	67547	56789	65478	67854	69876	64321	391865
Хизмат сафари	56789	76543	67543	65745	64321	65789	396730
Электр	45789	67865	65432	45676	56784	45678	327224
Жами	2550369	581437	700875	902996	807842	1018120	6561639

4-rasm.

Endi yaratilgan 4-rasmdagi jadval asosida Excel elektron jadvalida diagramma yasaymiz. Buning uchun

7		Январь	Февраль	Март	Апрель	Май	Июнь	Жами
8	Маош	2334567	345673	456788	678956	567896	789654	5173534
9	Реклама	45677	34567	45634	44765	48965	52678	272286
10	Ижара	67547	56789	65478	67854	69876	64321	391865
11	Хизмат сафари	56789	76543	67543	65745	64321	65789	396730
12	Электр	45789	67865	65432	45676	56784	45678	327224
13	Жами	2550369	581437	700875	902996	807842	1018120	6561639


5-rasm.




belgilaymiz.


paydo bo'ladi:

tugmasi bosiladi. Natijada quyidagi muloqot oynasi




6-rasm.

Master diagramm muloqot oynasining **Tip** bo'limidan tugmasi bosiladi. Keyin **Master diagramm** muloqot oynasining **Vid** bo'limidan  belgisi bosiladi. Keyin quyidagi xolat yuz beradi:




7-rasm.

Endi tugmasi bosiladi va quyida muloqot oynasi paydo bo'ladi:




8-rasm.

Bu muloqot oynasidagi Название диаграммы: bo'limiga «Axmad-Ziyo» kichik
 korxonasining xarajatlari to'g'risidagi ma'lumot, Ось X (категорий): bo'limiga
Ось Y (значений):
Oylar, bo'limiga **xizmatlar** kiritiladi. Natijada quyidagi
 muloqot oynasi paydo bo'ladi:




9-rasm.

Endi 9-rasmdagi muloqot oynasidagi  tugmasi bosilgach quyidagi muloqot paydo bo'ladi:



10-rasm.

10 -rasmidagi muloqot oynasidagi  tugmasi bosilgach quyidagi muloqot paydo bo'ladi:



11 -rasm.